

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SUBXONOV SHERALI MUHAMMAD O'G'LI

**FUQAROLIK PROTSESSIDA ALOHIDA TARTIBDA KO'RILADIGAN
ISHLARNING AYRIM TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

**Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Subxonov Sherali Muhammad o'g'li

Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko'riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish.....5

Субхонов Шерали Мухаммад угли

Совершенствование отдельных категорий дел, рассматриваемых в порядке особого производства в гражданском процессе..... 25

Subkhonov Sherali Mukhammad ugli

Improvement of certain categories of cases considered in special proceedings in civil procedure.....48

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SUBXONOV SHERALI MUHAMMAD O'G'LI

**FUQAROLIK PROTSESSIDA ALOHIDA TARTIBDA KO'RILADIGAN
ISHLARNING AYRIM TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

**Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1542 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb- sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Axtam Nusratilloevich
yuridik fanlar doktori, professor v.b

Olimova Kamilaxan Kamaliddinovna
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 31-iyul kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233- 66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1408-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil 15-iyuldagi 79-son reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

S.S.Bozarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

B.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning 142 ta mamlakatida huquq ustuvorligi (the rule of law) surati the World Justice Project (WJP) indeksda mavjud 8 ta indikator orqali baholanadi. The World Justice Project indeksi tomonidan 2025-yilda nashr qilingan ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning aksariyat mamlakatlarida qonun ustuvorligida global miqyosda regress kuzatilayotganligi, bu davlat hokimiyatiga cheklovlar belgilash, inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik odil sudlovdan foydalanish kabi holatlarning susayishi bilan izohlanadi. 2024-yilda huquq ustuvorligida regress kuzatilgan 57% davlatlardan 78% da yuqoridagi 3 ta indekator (1, 4 va 7 indekatorlar) bo'yicha reytingda pasayish qayd etilgan. Dunyoda alohida tartibda ish yuritish instituti haqida doktrinal g'oyalarni rivojlantirish istiqbollari, alohida tartibda ish yuritishni huquqiy tartibda solishning zamonaviy tendensiyalari, alohida tartibda yuritiladigan ishlarning ayrim turlarini ko'rib chiqishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'siri, alohida tartibda yuritiladigan ishlarning ayrim turlarini ko'rib chiqish va hal etishda odil sudlovning samaradorligi, fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish istiqbolari kabi masalalar davr talabidir.

Jahonda alohida tartibda ish yuritish institutini shakllashtirish va shu tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etishda odil sudlovning samaradorligi oshirishda "Jurisdictio Voluntaria" (ixtiyoriy yurisdiksiya) va "Xabeas korpus" huquqiy doktrinalari oid tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. The World Justice Project (WJP) va European Court of Human Rights (Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi jahon miqyosida sud tizimining samaradorligi va (procedural fairness) protsessual adolatni ta'minlash ushbu doktrinalarni alohida ta'kidlaydi¹.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlar izchil rivojlanib borayotgan hozirgi davrda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, tashkilot va jamoat birlashmalarining qonuniy manfaatlarini sudlar tomonidan samarali himoya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mustaqil sud-huquq tizimisiz jamiyat taraqqiyoti mumkin emasligini, Yangi O'zbekistonda har qanday munozarali masalani adolatli hal etish faqat sudning vakolatida bo'lishi lozimligini, sudlar faoliyatiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, ularning to'siqlarsiz faoliyat olib borishlar uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi deb ta'qidlagan so'zlari - huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishi va ijtimoiy turmushimizning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati va nufuzi jiddiy oshirilishi zarur²ligini ko'rsatadi.

Shu maqsadda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini

¹ <https://worldjusticeproject.org/our-work/wjp-rule-law-index/wjp-open-government-index/global-scores-rankings>

² Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston." Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021, 104-111 b.

ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish vazifasi belgilangan³. Bu borada sud statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha ko'rib hal qiluv qarori chiqarilgan ishlar Respublika miqyosida 2021-yilda 20123 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 18242 tasi to'liq qanoatlantirilgan ya'ni 90 foizni, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 22254 tani tashkil etib, bulardan qanoatlantirilgan ishlar 19759 tani, ya'ni 88,8 foizni tashkil etgan, 2023-yilda mazkur ishlar 22474 tani tashkil etib, shundan 20237 tasi, ya'ni 90 foizi to'liq qanoatlantirilgan, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 20 539 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 18 171 tasi, ya'ni 89 foizi qanoatlantirilgan⁴. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda mazkur turdagi ishlar sud tomonidan to'liq qanoatlantirilgan. Shu bilan birga, ayrim hollarda ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan qonunni qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xususan, sudga taalluqli bo'lmagan arizalarni ish yuritishga qabul qilish hollari ham uchrab turibdi. Ikkinchidan, faktlarni belgilash bilan bog'liq bo'lgan holatlar yetarli darajada tekshirilmaydi, manfaatdor shaxslar ishda ishtirok etishga jalb qilinmaydi, oqibatda qator ishlar bo'yicha fuqarolarning arizalarini qanoatlantirish to'g'risida asossiz hal qiluv qarorlari chiqarilmoqda. Shuning uchun shaxslarning subyektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarini alohida ish yuritish tartibda sud orali himoya qilish va bu bilan bog'liq bo'lgan huquqiy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganib, sud amaliyotiga tadbiq qilish uchun tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda FPK deb yuritiladi) (2018), Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Oila kodeksi (1998), "Sudlar to'g'risida"gi (2021) qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi PF-5482-son "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari va 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi" to'g'risida"gi Farmoni / available at <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkiliy nazorat boshqarmasining 12.07.2024 yildagi 07/14-9300-316-son ma'lumotnomasidan

texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda fuqarolik protsessida alohida tartibda ko'riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish masalalari mamlakatimiz huquqshunos olimlari Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, S.A.Yakubov, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, O.Okyulov, Sh.N.Ro'zinazarov, D.Yu.Xabibullayev, B.Samarxodjayev, M.Nasullayev, M.M.Tojiboyev, S.A.Maripova, K.K.Olimova, X.A.Kuchkarov, O.Sh.Pirmatov, S.F.Inoyatova, J.D.Axmedov, Q.X.Mirsagatov, U.T.Shamshidinov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Xususan, Sh.Shoraxmetov tomonidan alohida tartibda ish yuritishning umumiy masalalari, D.Yu.Xabibullayev fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari, Z.N.Esanova "Farzandlikka olishning moddiy va protsessual jihatlari", M.Nasullayev yuridik faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish, M.M.Tojiboyev fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarining nazariy va amaliy masalalari, O.Sh.Pirmatov fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish masalalari tahlil etilgan⁵.

Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko'riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish masalalari MDH mamlakatlarining bir qator olimlari, xususan, M.K.Treushnikov, V.V.Yarkov, M.A.Vikut, D.M.Chechot, M.S.Shakaryan, G.L.Osokina, A.A.Vlasov, Y.A.Borisov, I.A.Jeruolis, M.Y.Lebedev, P.F.Yeliseykin, A.V.Kurilev, S.N. Abramov, N.A.Chudinovskaya, A.A.Dobrovolskiy, S.A. Ivanova, T.D.Peskova, A.A. Pavlushina, N.I.Matuzov, Ye.A. Krashennikov, V.P.Gribanov, R. Gukasyan, Pyatipetov I.M, S.G.Bivalseva, N.P.Lomanova, Ye.L.Golovanova, Yu.K.Osipov, G.A.Jilin, A.A.Bogomolov, S.L.Degtyarev, D.Ya.Maleshina, N.T.Arapov, I.M.Zaysev, V.V.Argunov, A.Yu.Fransiforov, Yu.V.Tixomirova, N.A.Alimova, V.F.Borisova, I.V.Baranov, M.Kalinkina, D.I.Zakirova, B.N.Lapin, N.A.Chechina, P.V.Baxarev, I.I.Golovko, T.N.Maslova, R.V.Gabeyev, I.V.Reshetnikova, G.O.Abolonin va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan⁶.

Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik protsessida alohida tartibda ko'riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish masalalari Joseph L.Hoffmann, Chuks Okpaluba, Anthony Nwafor, David Fernández-Álvarez, James E. Pfander va Daniel D. Birk, Werner F. Ebke, Jean-Pierre Marguénaud, Arthur T. von Mehren, David J. Galligan, Adrian Zuckerman, Rolf Stürner, Dimitrios Tsikrikas, Richard Markus, Cooper Ramo Joshua, Mohit Sagar kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Biroq, mamlakatimizda alohida tartibda ish yuritishning protsessual masalalari alohida kompleks monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi

⁵ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁶ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish” (2022-2025-y.y.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlariga oid protsessual qonunchilikni takomillashtirish va sud amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

alohida tartibda ish yuritish tushunchasi, maqsad va vazifalariga oid ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlarni tadqiq etish;

alohida tartibda yuritiladigan ishlarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

alohida tartibda ish yuritish ishtirokchilari, arizachi va manfaatdor shaxsning protsessual huquqiy maqomi to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

alohida tartibda yuritiladigan ishlarni qo‘zg‘atish va sud muhokamasiga tayyorlash bosqichi to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlar va protsessual masalalarni tahlil qilish;

alohida tartibda yuritiladigan ishlarni sud ko‘rish bosqichi to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlar va protsessual masalalarni tahlil qilish;

alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudning hal qiluv qarorining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish;

MDH va xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligida alohida tartibda ish yuritish institutini tadqiq etish, uning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

alohida tartibda ish yuritishni raqamlashtirish istiqbollari tahlil etish;

alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqishda sun‘iy intellektni joriy etish;

alohida tartibda ish yuritishning protsessual mexanizmlariga oid fuqarolik protsessual qonunchiligi va sud amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida alohida tartibda ish yuritishning protsessual tartibi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi va u bilan bog‘liq holda fuqarolik protsessining qoidalari va ularni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari olingan.

Tadqiqotning predmetini alohida tartibda yuritiladigan ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularni sud amaliyotida qo‘llash va fuqarolik protsessual huquqi fanida mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy, amaliy va nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli-huquqiy tahlil, qiyosiy huquqiy, induksiya va deduksiya, statistik ma‘lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxsning O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo'lmagan hollarda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi faktini sud tartibida alohida ish yuritish tartibida tasdiqlashi mumkinligi asoslantirilgan;

qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshootga nisbatan xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish fakti alohida ish yuritish tartibida aniqlanmasligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 169-moddasi birinchi qismining oltinchi xatboshisida ko'rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 169-moddasi birinchi qismining oltinchi va yettinchi xatboshilarida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to'g'risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar, farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar farzandlikka oluvchi bo'lishlari mumkin emasligi haqida tushuntirish berilishi asoslantirilgan;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatishda uning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni vasiy, voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni esa ota-onasidan biri yoki boshqa qonuniy vakili amalga oshirishi mumkinligi haqida tushuntirish berilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alohida tartibda yuritiladigan ayrim turdagi ishlari ko'rib chiqish va hal qilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 66, 294, 299, 306, 312-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi 10¹-modda, 37¹-BOB. "Fuqarolarning qimor o'yinlarida ishtirok etishini cheklash" va 37²-BOB. "Uzoq muddatli himoya orderini berish" deb nomlangan yangi boblarni kiritish asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining bir qator qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asoslantirilgan;

Alohida tartibda ish yuritishda sun'iy intellektni alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ariza va boshqa protsessual hujjatlari namunalarini yaratash, ish bo'yicha dalillarni baholash, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ish materiallari asosida sud hujjatlari loyihalarini tuzish, qabul qilingan qarorlar tendensiyalarini baholash kabi masalalar bo'yicha qo'llash asoslantirilgan;

Arizasi beriladigan sudni avtomatik ravishda aniqlash, ish materiallari bilan onlayn tanishish, davlat bojini hisoblash va to'lash, biometrik ma'lumotlardan foydalangan holda identifikatsiya qilish orqali sud muhokamasiga ishtirok etish, sud chiqargan hujjatlarini boshqa davlat organi va tashkilotlari bilan integratsiya qilish kabi sud jarayonlarini raqamlashtirish asoslantirilgan;

Fuqaroni muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi sud hal qiluv qarorlari reyestrini yuritish va vazifani vasiylik va homiylik organi vakolatiga berish asoslantirilgan;

“Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, sud amaliyotiga asoslangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy suditomonidan 2022-2024-yillarda ko‘rilgan ishlarning statistik ma‘lumotlaridan foydalanilgan, shunidek xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan va vakolatli davlat organlari tomonidan natijalarning joriy qilinishi bo‘yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo‘lmagan hollarda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi faktini sud tartibida alohida ish yuritish tartibida tasdiqlashi mumkinligi to‘g‘risida taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 1991-yil 20-dekabrda 5-sonli qarorining 2-bandining oltinchi kichik xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 26-aprelda 08/428-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi faktini fuqarolik sudlarida alohida ish yuritish tartibida belgilashning aniq mexanizmi yaratilib, qonunchilikni turli talqin qilishni oldini olishga xizmat qilgan;

qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshootga nisbatan xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish fakti alohida ish yuritish tartibida aniqlanmasligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 1991-yil 20-dekabrda 5-sonli qarorining 18-bandining uchinchi xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 26-aprelda 08/428-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi yagona sud amaliyotini ta‘minlashga, sudga asossiz murojaatlar sonining kamayishiga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 169-moddasi birinchi qismining oltinchi xatboshisida ko‘rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 169-moddasi birinchi qismining oltinchi va yettinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to‘g‘risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar, farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar farzandlikka

oluvchi bo'lishlari mumkin emasligi haqida tushuntirish berilishi to'g'risida taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli qarorining 13-bandining ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 26-apreldagi 08/428-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqish va hal qilish mexanizmini takomillashirishga xizmat qilgan;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatishda uning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni vasiy, voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni esa ota-onasidan biri yoki boshqa qonuniy vakili amalga oshirishi tushuntirish berilishi to'g'risida taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga hamda sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga yotqizish yoki uning ushbu muassasalarda yotish muddatini uzaytirish bilan bog'liq fuqarolik ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 2015-yil 18-sentabrdagi 14-sonli qarorining 6-bandining oltinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 26-apreldagi 08/428-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi yagona sud amaliyotini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlarida sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 12 ta maqola (5 tasi xorijiy nashrda) va 9 tasi xalqaro hamda respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Alohida tartibda ish yuritishning ilmiy-nazariy va konseptual tavsifi**” nomli birinchi bobida fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va mohiyati, ishtirokchilarining huquqiy maqomi, alohida tartibda ish yuritishning da’vo tartibida ish yuritishdan farqli jihatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Dunyoda mavjud Jurisdiction Voluntaria (ixtiyoriy yurisdiksiya) huquqiy doktrinasida fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish institutining nazariy va tarixiy asosi bo‘lib xizmat qilgan va uning rivojlanishiga asos yaratgan. Doktrinaning asosi huquq to‘g‘risida nizo (dispute of law) ning mavjud emasligi, sudning faol roli (active role of the court), protsessual soddalashtirish (procedural simplification) kabi konseptual g‘oyalardan iborat bo‘lib, alohida tartibda ish yuritish institutining mohiyatini va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. O‘zbekistonda fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish instituti ushbu huquqiy doktrinalarga asoslangan. Dissertant qayd etilgan doktrinani tahlil qilish asosida alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha ish holatlarini tekshirish prinsipini mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ish yuritishni soddalashtirish va protsessual qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlarni kiritish kerak degan xulosaga keladi.

Tadqiqotda Dispute of law (huquq to‘g‘risida nizo) va Dispute of fact (fakt to‘g‘risida nizo) konsepsiyalarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. Muallif huquq to‘g‘risida nizo va fakt to‘g‘risida nizo bir biridan farq qiladigan ikkita mustaqil tushuncha bo‘lib, fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritishda fakt to‘g‘risida nizo bo‘lishi mumkinligi haqida xulosani ilgari surgan. Dispute of law konsepsiyasida asosiy e’tibor subyektiv huquqning mavjud yoki mavjud emasligi haqida nizoga qaratilsa, Dispute of fact konsepsiyasida nizo ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda namoyon bo‘ladi. Alohida tartibda ish yuritishda fakt to‘g‘risida nizo ishning holatlarini to‘liq va xolisona o‘rganishda, dalillarning haqiqiylikni aniqlashda, dalillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda ifodalanadi. Bu xulosa alohida tartibda ish yuritish institutini ma’muriy organlar (notariat, FHDYO, hokimiyat va boshqa vakolatli organlar) tomonidan nizosiz ishlarni ma’muriy tartibda ko‘rib chiqishdan farqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish tushunchasiga oid qator olimlar (Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, V.V.Yarkov, M.K.Treushnikov, V.P.Volojanin, Ye.A.Borisova va boshqalar)ning qarashlari tahlil qilinib, alohida tartibda ish yuritish tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda alohida tartibda ish yuritishning da’vo tartibida ish yuritishdan farqli jihatlari nazariy-huquqiy (Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, V.V.Yarkov, M.K.

Treushnikov, N.I.Matuzov, Ye.A.Krashennikov, R.Gukasyan, G.A.Jilin, I.M.Zaysev, V.V.Argunov) tahlil qilingan va alohida tartibda ish yuritish institutining asosiy va fakultativ mezonlari ishlab chiqilgan.

Ushbu xulosalar alohida tartibda ish yuritish institutining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berishga, uni da'vo tartibidan farqlash mezonlarini aniqlashga va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessal kodeksining 6-bobida mavjud ishtirokchilar ro'yxati va ushbu kodeksining 27-37-boblarida belgilangan qoidalar va boshqa tegishli boblarida keltirilgan normalarga muvofiq, alohida tartibda ish yuritishda arizachi va boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilgan shaxslar, shuningdek, ish bo'yicha xulosa berish uchun protsessga jalb qilingan davlat organlari va tashkilotlari ishtirok etadi, degan xulosaga keladi. Tadqiqot ishida alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizachi (ariza beruvchi) va manfaatdor shaxs huquqiy maqomiga oid qator olimlar (Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, Ye.A.Golovanova, R.F.Kallistratova, N.P.Lomanova, M.S.Shakaryan, P.P.Zavorotko, M.I.Shtefan va boshqalar)ning qarashlari tahlil qilinib, arizachi va manfaatdor shaxs ishda ishtirok etuvchi mustaqil shaxslar ekanligi asoslantirilgan va ularga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini sudga ko‘rib chiqish va hal etishning protsessual xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobida fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini qo‘zg‘atish va sud muhokamasiga tayyorlash, ularni sud muhokamasida ko‘rib chiqishning protsessual tartibini takomillashtirish va ish yakuni bo'yicha qabul qilinadigan sudning hal qiluv qarorini tahlil qilish masalalari ilmiy-huquqiy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan.

Ishning qo‘zg‘atilishi sudga ish yuritishni olib borishning birinchi bosqichi bo‘lib, sudga fuqarolik ishini qo‘zg‘atish uchun arizachining ham, sud'yaning ham harakatlarini qamrab oluvchi muayyan huquqiy tartib-qoidaga rioya qilish lozim. Jumladan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni qo‘zg‘atish boschiqida arizachi tomonidan arizani rasmiylashtirish va O‘zR FPKda belgilangan uning mazmuniga qo‘yilgan talablarga rioya etilganligi, arizaga zarur hujjatlar ilova qilinganligi, ariza ariza berish vakolatiga ega bo‘lgan tegishli shaxs tomonidan imzolanganligi, talab aniq shakllantirilganligi va u fuqarolik sudiga taalluqli, sudlovga tegishlik qoidasiga rioya etilganligi, talabni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinganligi, davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to‘langanligi va boshqa bir qator masalalar sudya tomonidan tekshiriladi.

AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Germaniya davlatlari, va Moldova, Belarus Respublikalari ijobiy tajribasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 152-moddasida bola va farzandlikka oluvchilar

yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmashligi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qator moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin emasligi belgilangan bo'lib, ushbu ma'lumotlar ariza mazmunida va unga ilova qilinadigan hujjatlarda aks ettirish farzandlikka olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarni ish qo'zg'atish boschiqida aniqlashning protsessual mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

Ish yuritishni qo'zg'atish bosqichining yana bir tarkibiy masalalaridan biri fuqarolik ishlarining sudlovlik masalasi hisoblanadi. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni, ya'ni imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini va merosning ochilish joyi faktlarini aniqlashda muhim jihatlaridan biri mulkning huquqiy maqomini belgilash bo'lsada, ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi deb umumiy sudlovlik qoidasi belgilangan. Muallif sud amaliyoti va xorijiy davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Qozog'iston, Belarus, Moldova) tajribasini o'rganish asosida imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish to'g'risidagi, merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktlarini aniqlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlovga tegishlilikning alohida qoidasini qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelgan.

Imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish masalasi alohida tadqiq qilingan. O'zbekiston Respublikasining uy-joy masalalariga oid qonun hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.06.2018-yildagi 461-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 27-bandi va O'zbekiston Respublikasining 05.08.2024-yildagi O'RQ-937-son qonuni)da ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqini e'tirof etishni rad etish asoslari belgilangan bo'lib, ushbu masala yuzasidan tegishli tushuntirish O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida» 1991-yil 20-dekabrda 5-sonli qaroriga berish, ya'ni qarorning 18-bandida qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshootga nisbatan xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish fakti aniqlanmaydi deb belgilash taklif etiladi.

Ma'lumki, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida sudya tomonidan bir qator protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida bedarak yo'qolgan shaxs qidirishga qaratilgan protsessual harakatlar yetarli emas. Xitoy, Italiya, Ispaniya davlatlarida ommaviy axborot vositalarida 15 kundan 3 oy gacha muddatda bedarak yo'qolgan fuqaroni qidirish to'g'risida arizachi hisobidan e'lon beriladi. Tadqiqotchi ushbu qoidani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish lozimligini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan. Dissertatant Qozog'iston, Armaniston, Gruziya davlatlarining Fuqarolik protsessual qonunchilik tajribasini

o'rganish natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni sud muhokamaga tayyorlashda ish bo'yicha uning vakili sifatida rasmiy vakil-advokat qatnashishi kerak degan taklifni ilgari suradi. Tadqiqotchi ushbu taklifni O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga kiritilishi yuridik yordam olish huquqini davlat tomonidan amalda ta'minlanishiga, muomala layoqati cheklanayotgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilayotgan shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari suiste'mol qilish holatlarining oldi olinishiga xizmat qiladi deb hisoblaydi.

Sud majlisining muhim bosqichlaridan yana biri prokurorning fikr bildirishi bo'lib, O'zR FPKning 245-moddasida ishda ishtirok etuvchi prokuror sud muzokaralaridan keyin nizoning mohiyati bo'yicha o'z fikrini bayon etishi belgilangan, ammo fikr qanday shaklda - og'zaki yoki yozma - berilishi belgilanmagan, shuningdek, prokuror fikrining mazmuniga oid normalar mavjud emas. Dissertant tomonidan rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, Germaniya, Fransiya va AQSH protsessual qonunchigida shakllantirilgan prokurorning xulosa(fikri)si shakli va uning mazmuniga oid talablar asosida alohida tartibdagi ishlar bo'yicha prokurorning fikri yozma bo'lishi va *kirish, bayon, asoslantirilgan va xulosa* qismlaridan iborat bo'lishi asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qaroriga oid protsessual qonunchilik va qator olimlar (Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, G.N.Osokina, T.Mazayeva, A.A. Knyazev, V.I. Reshetnyak va boshqalar) qarashlari tahlil qilinib, alohida ish yuritish tartibida ish yakuni bo'yicha qabul qilinadigan sudning hal qiluv qarori - amaldagi protsessual va moddiy huquq normalariga muvofiq alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish natijasida muayyan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan, O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan, ijro etish xususiyatiga ega birinchi instansiya sudining hujjati ekanligi haqida mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Muallif ishda alohida tartibda ish yuritishda o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmi takomillashtirish masalasini tahlil qilib, Fransiya Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 952-moddasida, Germaniya Federatsiyasining "Oilaviy masalalar va ixtiyoriy yurisdiksiya to'g'risida"gi qonunining 68-moddasida manfaatdor shaxsning ariza asosida sudya o'z qarorini o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkinligi belgilanganligiga e'tibor qaratadi. **De le ferenda** sifatida birinchi instansiya sudiga ariza (shikoyat) berish, birinchi instansiya sudiga ushbu arizani (shikoyatni) ko'rib chiqish huquqini berish hamda huquq to'g'risida nizo aniqlangan taqdirda qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish va da'vo tartibida ko'rib chiqish, huquq to'g'risida nizo aniqlanmagan taqdirda arizani (shikoyatni) apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyaga ko'rib chiqish uchun yuborish tartibini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida xorijiy davlatlar va milliy fuqarolik protsessual qonunchiligini qiyosiy tahlil etish orqali fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish, ayrim turlarini joriy etish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ilmiy-huquqiy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligining qiyosiy tahlili natijasida muallif uzoq muddatli himoya orderini berish, fuqaroning qimor uyinlarida ishtirok etishini cheklash to‘g‘risidagi fuqarolik ishlarni alohida tartibda ko‘riladigan ishlar toifasiga kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi fakti yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar ruyxatiga kiritish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasiga ko‘chib kelgan, ammo obyektiv sabablarga ko‘ra yashab turgan joylarida doimiy ro‘yxatdan o‘tmasdan yashab kelayotgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini so‘rab ichki ishlar organlariga murojaat qilganlarida pasportlarida yoki tasdiqlovchi hujjatlarida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi belgi mavjud bo‘lmaganligi sababli ushbu organ fuqarolikni berishni rad qiladi va masalani sud tartibida hal qilishni tushuntiradi. Amaliyotda hozirgi kunda fuqarolik sudlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi fakti belgilash keng tarqalgan fuqarolik ishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu toifa ishlar alohida ish yuritish tartibida hal etilishini Qozog‘iston va Germaniya Respublikalari qonunchiligida ko‘rish mumkin. Mavjud sud amaliyoti va Qozog‘iston va Germaniya tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida» 1991-yil 20-dekabrda 5-sonli qaroriga chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo‘lmagan hollarda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligi faktini tasdiqlashi mumkinligi to‘g‘risida qo‘shimcha tushuntirish o‘z aksini topishini taklif etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2024-yildagi PF-68-son Farmoniga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasida Internet butunjahon axborot tarmog‘ida tavakkalchilikka asoslangan faoliyatini tashkil etish va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etilayotgan bir paytda ushbu o‘yinlarining salbiy oqibatlarini oldini olishning protsessual mexanizmlarini yaratish masalasi ochiq qolmoqda. Tadqiqotchi uchbu masala bo‘yicha AQSH, Germaniya, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston davlatlari tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasi FPKga alohida tartibda ko‘riladigan ish turi sifatida fuqarolarning qimor o‘yinlarida ishtirok etishini cheklash haqidagi alohida yangi bob kiritish, ushbu bobda fuqarolarning qimor o‘yinlarida ishtirok etishini cheklash haqida ariza mazmuni va uni berish tartibi, ish ko‘rib chiqish tartibi va muddatlari, ish ko‘rib chiqish yakuni bo‘yicha sudning hal qiluv qarori mazmuni shakllantirish bo‘yicha taklifini asoslantiradi.

Maishiy zo‘ravonlik butun dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, nafaqat bir oila, balki butun jamiyat xavfsizligiga tahdid bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlikning asosiy qurbonlari bolalar va ayollar hisoblanadi, ya‘ni 95 foizi. Zo‘ravonlikka uchragan shaxslarni himoya qilish maqsadida beriladigan himoya orderi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-yil boshida joriy qilingan bo‘lib, unda himoya orderini berish asoslari, tartibi va muddati aniq belgilandi. Dissertant himoya orderlari berishda mavjud huquqiy mexanizm qanchalik samarali, bu yo‘nalishda yana qanday qadamlar qo‘yilishi kerak degan savollar yuzasidan izlanish olib borib, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida zo‘ravonlikka uchragan shaxslarga himoya orderlarini fuqarolik sudlari tomonidan berishning yangi tartibini taklif etadi.

Rivojlangan davlatlar (AQSH, Singapur, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Estoniya va Litva) tajribasi asosida fuqarolik protsessida ma‘lum dalillar algoritmi asosida hal qilish mumkin bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega faktlarni alohida ish yuritish tartibida aniqlashda sun‘iy intellektni qo‘llash, shuningdek, alohida tartibda ish yuritishda sun‘iy intellektni alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha ariza va boshqa protsessual hujjatlari namunalarini yaratish, ish bo‘yicha dalillarni baholash, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish, ish materiallari asosida sud hujjatlari loyihalarini tuzish, qabul qilingan qarorlar tendensiyalarini baholash kabi masalalar bo‘yicha qo‘llash asoslantirilgan.

XULOSA

Fuqarolik protsessida alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning ayrim turlarini takomillashtirish mavzusini ilmiy-nazariy tahlil etgan holda quyidagi ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Tadqiqotchi tomonidan Jurisdictio Voluntaria (ixtiyoriy yurisdiksiya) va Habeas Corpus huquqiy doktrinalari tahlil etilib, sud alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rayotganida Jurisdictio Voluntaria doktrinasi qoidalarini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Jurisdictio Voluntaria doktrinasi alohida tartibda ish yuritish institutining mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berib, fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritishning rivojlanishi uchun nazariy va tarixiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Uning asosiy konseptual goyalari huquq to‘g‘risida nizo (dispute of law)ning mavjud emasligi, sudning faol roli (active role of the court) va protsessual soddalashtirish (procedural simplification) bo‘lib, alohida tartibda ish yuritishni tartibga soluvchi protsessual normalarda o‘z aksini topgan.

2. Dispute of law (huquq to‘g‘risida nizo) va dispute of fact (fakt to‘g‘risida nizo) huquqiy konsepsiyalarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari tahlil etilib, fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritishda fakt to‘g‘risida nizo bo‘lishi mumkin degan xulosaga keladi. Bu ushbu konsepsiya fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish institutini ma‘muriy tartib(notariat, FXDYO, hokimiyat va

boshqa vakolatli organlar)da yuritiladigan nizosiz ishlarni ko‘rib chiqish va hal qilish tartibidan farqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohalanib, alohida tartibda ish yuritishning isbotlash va dalillarni tekshirish jarayonida ifodalanadi.

3. Muallif tomonidan fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish tushunchasiga quyidagi ilmiy ta’rif ishlab chiqildi: Fuqarolik protsessida alohida tartibda ish yuritish – bu fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilangan sudda alohida xusuiyat kasb etgan (jumladan nizosiz) ishlarni ko‘rib chiqish va hal qilish tartibi bo‘lib, uning maqsadi yuridik faktlar va subyektiv huquqlarni tasdiqlash, yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishga ruxsat berish orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qilishlan iborat.

4. Muallif tomonidan arizachi va manfaatdor shaxs tushunchasiga quyidagi ilmiy ta’rif ishlab chiqildi: Arizachi - o‘z huquqi yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida alohida tartibda ish yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etuvchi shaxs. Manfaatdor shaxs – alohida tartibda ko‘riladigan ish bo‘yicha sud hujjati chiqarilishi natijasida huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga daxl qilinishi mumkin bo‘lgan shaxs.

5. Alohida tartibda ish yuritishning da’vo tartibida ish yuritishdan farqli jihatlar nazariy-huquqiy tahlil etilib, quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga keladi.

- a) huquq to‘g‘risida nizoning mavjud emasligi;
- b) ish yuritishning maqsadi – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- d) taraflarning mavjud emasligi;
- e) alohida tartibda yuritiladigan ishlarni qo‘zg‘atish ariza berish orqali amalga oshirilishi;
- f) sudga murojaat qilish huquqiga ega shaxslar cheklangan doirasi;
- g) sudga taalluqliligi, sudlovliligi;
- h) sudda ishni ko‘rishga tayyorlash va ko‘rib chiqishning o‘ziga xos protsessual xususiyatlari;
- i) sudning hal qiluv qarori mazmuni va uning ijrosiga oid maxsus talablar mavjudligi;
- j) sudning hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilishning o‘ziga xos tartibi.

II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:

